


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-dekabr)

2018 yilning yanvar-dekabr oyida viloyatdada 2027 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 722 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1706 ta (18,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 11175 tani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


	Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1296	1294	345
	Sanoat	1819	1809	377
	Qurilish	1051	1047	243
	Savdo	2220	2210	311
	Tashish va saqlash	463	461	89
	Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	861	856	194
	Axborot va aloqa	162	161	40
	Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	228	227	33
	Boshqa turlari	3181	3110	395



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.

2019 yilning 1 yanvar holatiga 11281 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 19,7 % savdo, 16,1 % sanoat, 9,3 % qurilish, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 28,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3350 ta), Karmana (1938 ta), Qiziltepa (1242 ta) va Xatirchi (1135 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (419 ta), Kanimex (355 ta) hamda Tomdi (189 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 11175 tani tashil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1706 ta (18,0 %) ga o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 19,8 % savdo, 16,2 % sanoat, 9,4 % qurilish, 11,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3310 ta), Karmana (1926 ta), Qiziltepa (1232 ta), Xatirchi (1125 ta) va Navbahor (984 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Uchquduq (415 ta), Konimex (349 ta) hamda Tomdi (186 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxona
va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar
kesimida soni, birlikda**

01.01.2017 y.

• 8770

01.01.2018 y.

• 9469

01.01.2019 y.


• 11175



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2027 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017 yilning shu davriga nisbatan 55,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Navoiy (470 ta) va Zarafshon shaharlariда (222 ta), Karmana (304 ta), Xatirchi (208 ta) va Nurota (217 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Aksincha Uchquduq (103 ta), Kanimex (86 ta) hamda Tomdi (37 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (311 ta), sanoat (377 ta), qurilish (243 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (345 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (33 ta), axborot va aloqa (40 ta) hamda tashish va saqlash (89 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		01.01.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha jami	886	100	1305	100	2027	100
Savdo	178	20,1	215	16,5	311	15,3
Sanoat	189	21,3	280	21,5	377	18,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	161	18,2	296	22,7	345	17,0
Qurilish	76	8,6	94	7,2	243	12,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	98	11,0	147	11,3	194	9,6
Tashish va saqlash	53	6,0	77	5,9	89	4,4
Axborot va aloqa	31	3,5	15	1,1	40	2,0
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	1,9	27	2,1	33	1,6
Boshqa turlari	83	9,4	154	11,7	395	19,5

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar
kesimida soni**






TIJORAT KORXONALARNI.

2019 yil 1 yanvar holatiga 9181 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3438 ta, oilaviy korxonalar – 724 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4781 ta va boshqalar 238 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 109 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga yoki 81,7 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 67 tasi qo'shma korxonalar, 42 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar (39 ta yoki jamidagi ulushi 35,8 %), Karmana tumani (27 ta yoki 24,8 %) va Nurota tumanlari (11 ta yoki 10,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xatirchi tumani (3 ta yoki 2,8 %), Uchquduq tumani (2 ta yoki 1,8 %), Tomdi tumani (1 ta yoki 0,9 %) va Konimex tumanlari (4 ta yoki 3,7 %) hissalariga tog'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 65 tani (59,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17 tani (15,6 %), savdoda 8 tani (7,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 9 tani (8,3 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 1 tani (0,9 %), tashish va saqlashda 4 tani (3,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 tani (3,7 %) va qurilishda 1 tani (0,9 %) tashkil

qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'gri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa qurilishda hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2018 yilning yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 48 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 9 ta, Eron Islom Respublikasi – 6 ta, va Koreya Respublikasi – 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (25 ta), savdo (4 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta) va boshqa faoliyat turlari (8 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2017 yil yanvar-dekabr		2018 yil yanvar-dekabr	
	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	Umumiyl soniga nisbatan %
Sanoat	2	33,3	25	52,1
Savdo	-	-	4	8,3
Qurilish	-	-	-	-
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	66,7	11	22,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	2	4,2
Axborot va aloqa	-	-	1	2,1
Tashish va saqlash	-	-	1	2,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlari	-	-	4	8,3



➡ Kichik korxona va mikrofirmalar soni.

2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 9104 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018 yil 1 yanvar holatiga qaraganda 20,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2806 tasi (30,8 %) Navoiy shahri, 1679 tasi (18,4 %) Karmana, 1004 tasi (11,0 %) Qiziltepa, 816 tasi (9,0 %) hamda Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9104 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 2200 tasi (24,2 %) – savdo, 1783 tasi (19,6 %) - sanoat, 1045 tasi (11,5 %) - qurilish, 1252 tasi (13,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 855 tasi (9,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 448 tasi (4,9 %) - tashish va saqlash, 150 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 168 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1203 tasi (13,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rilib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 1810 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy (415 ta) va Zarafshon (212) shaharlarida, Karmana (263 ta), Nurota (211 ta) tumanlari hissasiga to'gri keladi. Eng kam Uchquduq (86 ta), Tomdi (32 ta) hamda Konimex (80 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (311 ta), sanoatda (376 ta), qurilishda (243 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (344 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (33 ta), axborot va aloqada (40 ta) hamda tashish va saqlashda (89 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni


 Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yilning 1 yanvar holatiga 725 tani tashkil etib, ulardan 724 tasi yoki 99,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 45,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 21,5 % yoki 156 tasi sanoat, 22,1 % yoki 160 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,1 % yoki 131 tasi savdo, 25,4 % yoki 185 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 7,3 % yoki 53 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Tugatilgan korxona va tashkilotlar


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida jami 497 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tugatgan.

Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan -160 taga tugatish kamaygan.

Albatta xo'jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kun talablariga moslashishi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yurtimizda talaygina ijobjiy o'zgarishlar ko'zga tashlanib, qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda tadbirkorlarning bugungi kun bozoriga moslashish darajasi ortib bormoqda.

Misol tariqasida 2016 yilda 723 ta, 2017 yilda 657 ta korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini yakunlagan bo'lsa, joriy yilning yanvar-dekabrdagi ushbu ko'rsatkich 497 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 160 taga tugatish kamaygan.

**Yangidan tashkil qilingan va faoliyati tugatilgan korxonalar va
tashkilotlarning yillar kesimida dinamikasi, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




Agarda tugatilgan 497 ta korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 105 tasi (21,1 %) savdo, 93 tasi (18,7 %) sanoat, 57 tasi (11,5 %) qurilish, 58 tasi (11,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 59 tasi (11,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 18 tasi (3,6 %) tashish va saqlashda, 7 tasi (1,4 %) axborot va aloqada, 5 tasi (1,0 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 95 tasi (19,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, tugatilgan korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

Faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
 (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

	01.01.2018 yil		01.01.2019 yil		
	Soni (birlikda)	jamiga nisbatan, % da	Soni (birlikda)	Jamiga nisbatan, % da	Farqi, (+,-)
Jami	657	100	497	100	-160
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	52	7,9	58	11,7	6
sanoat	83	12,6	93	18,7	10
qurilish	61	9,3	57	11,5	-4
savdo	111	16,9	105	21,1	-6
tashish va saqlash	15	2,3	18	3,6	3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	41	6,2	59	11,9	18
axborot va aloqa	11	1,7	7	1,4	-4
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	157	23,9	5	1,0	-152
boshqa turlari	126	19,2	95	19,1	-31

Tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2018 yil yanvar-dekabr oylarida 468 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan -22 taga kam kichik tadbirkorlik sub'ektlari tugatilgan.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 105 tasi (22,4%) savdo, 93 tasi (19,9 %) sanoat, 57 tasi (12,2 %) qurilishda, 57 tasi (12,2 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 59 tasi (12,6 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 18 tasi (3,8 %) tashish va saqlashda, 7 tasi (1,5 %) axborot va aloqada, 5 tasi (1,1 %) sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 67 tasi (14,3 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelgan.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasida hududlarda ham tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni yildan yilga kamayib bormoqda. Ushbu yo'nalishda asosan Xatirchi -39 ta, Karmana -29 ta, Qiziltepa -17 ta tumanlarida kichik korxona va mikrofirmalar o'tgan yilga nisbatan kam tugatilganligini statistik raqamlarda ko'rishimiz mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo'lumi
Tel.:71-230-84-56